

22«11»2022 yil.

168-12-175-MT/2022-son

«XONQA DIYOR» MCHJ korxonasi bundan buyon matnda «Sotuvchi» deb ataluvchi nomidan rahbari M.Sapaev faoliyatini amalga oshiruvchi bir tomondan va Xonqa tuman MTB bundan buyon matnda «Xaridor» deb ataluvchi nomidan mudiri F.S.Sabirov faoliyatini ko'rsatuvchi ikkinchi tomondan, quyidagilar to'g'risida ushbu shartnomani tuzishdi.

1. SHartnoma predmeti

1.1. «Sotuvchi» o'ziga tegishli mol-mulkni «Xaridor»ning mulki qilib (doimiy xo'jalik yurituvchi yoki butunlay boshqaruviga) beradi. «Xaridor» esa mol-mulkning xaqi to'langandan keyin olish majburiyatini oladi

	Maxsulot turi	O'l. bir.	Miqdori	QQS summasi	Narxi	Umumiy qiymat
1	Kartoshka	kg	21128	-	3600	76 060 800
2	Piyoz	Kg	14088	-	2600	36 628 800
3	Sabzi	Kg	14088	-	1700	23 949 600
4	guruch	Kg	3518	-	7500	26 385 000
	J-A M I					163 024 200

2. Shartnoma narxi, bahosi, summasi (qiymati)

2.1. SHartnomaning umumiy qiymati 163 024 200 (bir yuz oltmish uch millon yigirma to'rt ming ikki yuz) so'mni tashkil qiladi.

3. To'lov shartlari

3.1. «Xaridor» «Sotuvchi»ning hisob-raqamiga shartnomada ko'rsatilgan mahsulot miqdori summasining 30 foizini oldindan kolgan 70 foizi mahsulot to'liq etkazib berilgandan keyin o'tkazishni o'z zimmasiga oladi.

3.2. To'lov turi _____ to'lov topshiriqnomasi _____
(to'lov talabnomasi, to'lov topshiriqnomasi, chek akkredetiv va boshqalar)

4. Shartnomaning bajarilish muddati

4.1. SHartnomaning 1.2-bandida ko'rsatilgan mahsulot «Xaridor»ga shartnoma imzolanganidan keyin 3 kun vaqt ichida berilishi shart.

4.2. SHartnomaning amal qilish muddati: 2022 yil «__» noyabrdan 2022 yil 31 dekabrgacha o'z kuchida qoladi.

5. Taraflar huquqlari

5.1. «Xaridor»ning huquqlari:

5.1.1. Ushbu shartnoma asosida belgilangan mahsulotlarni o'z vaqtida va sifatli mahsulotni etkazishni «Sotuvchi»dan talab qilishga;

5.1.2. «Sotuvchi»dan shartnoma shartlarini bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik natijasida etkazilgan zararni talab qilishga haqlidir.

5.2. «Sotuvchi»ning huquqlari:

5.2.1. Ushbu shartnoma asosida belgilangan maxsulotlar uchun oldindan xaq to'lashni va amaldagi shartnoma va qonun xujjatlarida belgilangan tartibda xisob-kitoblarni amalga oshirishni «Sotuvchi»dan talab qilishga;

5.2.2. «Xaridor»dan shartnoma shartlarini bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik, maxsulotni qabul qilishda asossiz ravishda rad qilish natijasida etkazilgan zararni talab qilishga haqlidir.

6. Taraflar majburiyatlari

6.1. «Sotuvchi» majburiyati:

6.1.1. SHartnomada ko'rsatilgan talablarga rioya qilgan holda o'z vaqtida «Xaridor»ga mahsulotni etkazib berish;

6.1.2. Tegishli darajada sifatli mahsulot yuborilganligi to'g'risida bildirish (xabarnoma) olgandan so'ng sifatli bo'lmagan mol-mulkni 1 kun ichida almashtirib berish yoki ushbu shartnomaning 1.2-bandiga asosan sifatli bo'lmagan mahsulot bahosini qaytarib berish.

6.2. «Xaridor» majburiyati:

6.2.1. Mahsulotni qabul qilish dalolatnomasini tuzgan holda ushbu shartnomada va qonun hujjatlarida belgilangan butlash tartibiga, soniga, sifatiga qarab muddatida mahsulotni qabul qilib olish;

6.2.2. Tegishli darajada sifatli bo'lmagan mahsulot kelib tushgani aniqlangandan keyin, bu xaqda dalolatnoma yozilib, 24 soat ichida «Sotuvchi»ni ogohlantirish.

6.2.3. Mahsulotning bahosini ushbu shartnomada belgilangan miqdorda va muddatda to'lash.

7. Taraflar javobgarligi

7.1. Mahsulot berish vaqtida shartnoma bandlariga to'liq rioya qilmaganligi uchun aybdor taraf boshqa tarafga yetkazilgan zararni to'liq qoplaydi va kechiktirilgan har bir kun uchun 0,5% miqdorda penya to'laydi, lekin 50% miqdordan oshib ketmasligi kerak.

7.2. «Sotuvchi» «Xaridor»ga mahsulotni o'z vaqtida yetkazib berilmagan xar kuni uchun mahsulot bahosidan 0,5 % penya to'laydi.

7.3. Shartnoma talablarida ko'rsatilgan sifatlardagi hamda butlashdagi mol-mulk berilmagan bo'lsa, aybdor taraf 20 % miqdorida jarima to'laydi.

7.4. Tegishli darajada sifatli bo'lmagan mol-mulkni o'z vaqtida almashtirishdan bosh tortsa, «Sotuvchi» 5 % miqdorda jarima to'laydi.

7.5. Mahsulot uchun «Xaridor» o'z vaqtida yoki to'liq to'lovni amalga oshirmagan bo'lsa, mablag' miqdoridan 0,4% penya to'laydi, lekin 50 % miqdordan oshib ketmasligi kerak.

7.6. «Sotuvchi» omboridan o'z vaqtida mol-mulk olib chiqib ketilmasa, agar bu tomonlarning kelishuviga asosan ko'zda tutilgan bo'lsa, «Xaridor» xar bir o'tkazib yuborilgan kun uchun «Sotuvchi»ga omborda saqlanganligidan kelib chiqqan zarar uchun 0,5 % miqdorida jarima to'laydi.

7.7. Jarima to'lash taraflarni shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarni bajarishdan ozod qilmaydi.

8. TOMONLARNING KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH BO'YICHA MAJBURIYATLARI

8.1. Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda tomonlar korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qoidalarga, shu jumladan amaldagi qonunlarga rioya etilishini ta'minlaydi; ya'ni tomonlar bir-biriga yoki davlat ishtirokidagi tashkilot xodimiga pora berish yoki pora berishda vositachilik qilish, moddiy yoki nomoddiy naf olishdan tiyilishi lozim. Tomonlar ushbu harakatlarning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar qabul qilinishini kafolatlaydi.

8.2. Tomonlar korrupsiyaga qarshi qoidalar buzilganda yoki asosli gumonlar yuzaga kelganda darhol yozma ravishda (elektron pochta orqali) yoki ishonch telefoni orqali bir-birini xabardor qilish majburiyatini oladi. Bunda tomonlar yuzaga kelgan holatga oydinlik kiritish maqsadida yozma izoh talab qilish huquqiga ega va murojaatni olgan tomon 10 (o'n) ish kuni mobaynida tushintirish berishi yoki o'z fikrini bildirishi mumkin.

8.3. Mazkur bobning talablari bajarilmaganda, shu jumladan belgilangan muddatda korrupsion xavf-xatar bartaraf etilmasa, tomonlar amalga oshirgan choralar korrupsion holatni pasayishiga olib kelmasa, boshqa tomon shartnomani bekor qilish huquqiga ega yoki uning ijrosini to'xtatib qo'yishi mumkin.

9. Fors-majbor holatlari

9.1. Hech bir taraf ikkinchi taraf oldida o'ziga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra va engib bo'lmay kuch mavjud bo'lgan taqdirda ushbu shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlari bo'yicha javobgar emas. Urush e'lon kilinishi yoki boshlanishi, fuqarolar tartibsizligi, epidemiyaga, embargo, er qimirlashi, suv toshqini, yong'in va boshqa tabiiy ofatlar shular jumlasidandir.

9.2. Agar bartaraf qilib bo'lmaydigan kuch uch oy uzluksiz davom etsa, taraflar, bir-birini yozma ravishda ogohlantirib, shartnomaning ijrosini bekor qilishi mumkin.

10. Nizoni hal qilish tartibi

10.1. Ushbu shartnomada yoki unga bog'liq masalalar yuzasidan kelib chiqadigan barcha nizolar eng avvalo taraflarning kelishuvi bilan hal qilinadi.

10.2. Taraflarning kelishuvi bilan hal qilib bo'lmaydigan nizolar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda iqtisodiy sudi orqali hal qilinadi.

11. Shartnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish tartibi

11.1. Ushbu shartnomaga kiritilgan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar faqat ikkala taraf tomonidan yozma ravishda tuzilib, imzo qo'yilgandan keyingina yuridik kuchga ega bo'ladi.


11.2. Shartnomani taraflarning o'zaro kelishuviga asosan yoki O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga hamda amaldagi qonun hujjatlari normalariga binoan keltirilgan zararni to'lagan holda muddatidan ilgari bekor qilishi mumkin.

12. Boshqa holatlar


12.1 Ushbu shartnoma ikkala taraf uchun bir xil yuridik kuchga ega bo'lib ikki nusxada tuzilgan.
 12.2 Ushbu shartnoma O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil Fevraldagi PK-594-sonli qaroriga asosan G'aznachilikda ro'yxatga olingandan keyin qonuniy kuchga kiradi.
 12.3 Shartnomaga ilova:-----

12. Taraflarning yuridik manzilgohi va to'lov rekvizitlari

Sotuvchi	Xaridor
«XONQA DIYOR» mas'uliyati cheklangan jamiyati	Byudjetdan mablag oluvchi Xonqa tuman Maktabgacha ta'lim bo'limi
	Manzil:Xonqa tuman
Manzil: Xonqa tuman M.Xayitov kuchasi luy	Tel/faks 39-92-713
Tel/Faks 39-91-685	sh/x*100022860332237091100251002
X/R 20208000100393070001	Byudjetdan mablag' oluvchi SRIR i 305155680
Bank nomi QQB BANK BXO Xanqa	OKONX 84112
MFO 01037	Moliya Vazirligi YAgona G'azna xisobvarag'i
STIR 303 046 612	G'azna x/v 23402000300100001010
OKONX 71150	Bank nomi Toshkent sh Markaziy bankning
	Toshkent sh.XKKM MFO 00014
	G'aznachilik bo'linmasi STIR i 201122919
Sapaev. M	Raxbar F.S.Sabirov



12.4. Byudjetdan mablag' oluvchining g'aznachilik jumlasida ochilgan tegishli shaxsiy xisobvarag'i (shaxsiy xisobvaraqalari) ko'rsatiladi.

	Hujjat elektron raqamli imzo orqali imzolangan. Elektron raqamli imzoning haqiqiyiligini tekshirish uchun QR Code ni skanerlang.	
	Imzolovchi F.I.SH.	FAXRIDDIN SABIROV SULTANMURATOVICH
	Imzolangan sana	21.11.2022 17:28
	Hujjat kodi	YB6261625077
	Hulosa kodi	LH6158523470


**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY
XULOSA**

LH6158523470

1. Loyihaning turi : Shartnoma
2. Loyihaning nomi: **Mahsulot yetkazib berish shartnomasi**
3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot: Xonqa tumani maktabgacha ta'lim bo'limi tomonidan 22.11.2022 yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Xonqa tuman yuridik
markazi
bosh yuristkonsulti:



A.D.Bekchanov

22.11.2022

